
Farg'ona tumani hokimi Xamidullo Inomovning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bayram tabrigi

Hurmatli ustozlar, qadrli murabbiylar!

Avvalo, barchangizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sana — O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Dunyoda shunday kasb egalari borki, ularsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. O'qituvchilar esa hayotimiz charog'bonlaridir. Kim bo'lmaylik, qaysi sohada ishlamaylik, barchamizga muallimlar ta'lim va tarbiya berishgan.

Xalqimizda **"Ustoz - otangdek ulug'"** degan naql bor. Kimki bu hayotda biror yutuqqa erishsa, kasbidan e'zoz topsa, uning qalbida ustozlariga, birinchi o'qituvchisiga bo'lgan hurmat abadiy muhrlanadi.

Bizning asosiy maqsadimiz dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun erkin va farovon hayot qurishdan iborat. Ana shu vazifani sidqidildan uddalaydigan bilimli va iste'dodli, hech kimdan kam bo'lmagan navqiron avlodni tarbiyalash bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada Siz fidoyi o'qituvchi va murabbiylarning zahmatli mehnatingiz har qancha maqtovga loyiq.

Bugungi bayramda farzandlarimizga ta'lim-tarbiya berishda alohida ibrat ko'rsatayotgan tumanimizdagi peshqadam kasb sohiblarining har birini doim alohida hurmat-e'tibor bilan tilga olamiz.

Sizlarni 1-oktyabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

Doimo sog'-omon bo'ling, aziz ustozlar!

Hurmat va ehtirom ila,

Xamidullo Inomov

Farg'ona tumani hokimi

2024-10-01 19:37:42